



## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK ATAMALAR MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASH VA ULARDAN FOYDALANISH FUNKTSIYALARI

*Mavlanov Sh. Yu.*

*Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*

**Tayanch soʻzlar:** kasbiy kompetentlik, talabalar, pedagogik atamalar, ta'lim va tarbiya, chet soʻzlar, usullar, transformatsiya.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, студенты, педагогические термины, образование и воспитание, иностранные слова, методы, трансформация.

**Key words:** professional competence, students, pedagogical terms, education and upbringing, foreign words, methods, transformation.

**Резюме:** Talaba-yoshlarda yangi, chet soʻzlari, ya'ni atama va tushunchalarni toʻgʻri talaffuz qilish yoki oʻz oʻrnidagi qoʻllash bilan bogʻliq bilimlarni rivojlantirishga oid qator manbalarga asoslangan tavsiflar tadqiqot muammosini ochib berishda metodologiya vazifasini bajargan. Tadqiqot natijalari sifatida talabalar yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangi, zamonaviy pedagogik atamalar va tushunchalarni muntazam oʻrganib borishi zarurligi bayon etilgan. Talabalar pedagogik atamalarni kelgusi amaliy faoliyatida izchil qoʻllay olish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamon talablari darajasida tashkil etish imkonini yaratishga xizmat qilishi haqida ta'kidlar mavjud.

**Резюме:** Методологическое задание, раскрывающее проблему исследования, снабжено описаниями на основе ряда источников, связанных с развитием у студентов знаний новых иностранных слов, то есть правильного произношения или употребления терминов и понятий. В результате исследования установлено, что студенты должны регулярно изучать новые, современные педагогические термины и понятия, связанные с воспитанием молодого поколения. Как отмечается, студенты смогут последовательно использовать педагогические термины в своей будущей практической деятельности, выделены идеи, которые служат созданию возможности организовать образовательные процессы на уровне современных требований.

**Summary:** Descriptions based on a number of sources related to the development of knowledge related to the correct pronunciation or use of new foreign words, that is, terms and concepts in students, served as a methodology in revealing the research problem. As a result of the research, it was stated that students should regularly study new, modern pedagogical terms and concepts related to the education of the young generation. As noted, students will be able to consistently use pedagogical terms in their future practical activities, ideas are highlighted that serve to create an opportunity to organize educational processes at the level of modern requirements.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgani, barkamol yosh avlodni ko'p yillar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatini o'zida mujassam etgan, pedagog-mutaxassislardan fundamental bilimni mustahkam egallagan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Bunday talablarni bajarish mavjud ta'lim tizimini takomillashtirish, uni innovatsion davrga mos rivojlantirish, xususan oliy ta'limda pedagogika fani muammolarini hal etuvchi paradigmalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish bilan birga unga oid atamalar mohiyatini anglashi va ulardan to'g'ri foydalanishga qodir pedagoglar tayyorlashni taqozo etadi.

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchi mutaxassislik faniga, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangi, zamonaviy pedagogik atamalar va tushunchalarni muntazam o'rganib borishi, ularni amaliy faoliyatida izchil qo'llay olishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini zamon talablari darajasida tashkil etish imkonini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari nofilologiya yo'nalishi talabalarida pedagogik atamalar va tushunchalar asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirish zarur. Bo'lajak o'qituvchilar kelajakda chukur bilim hamda samarali faoliyat yuritish mahoratini egallashi pedagogik atamalar va tushunchalar bilan bog'liq yetarli nazariy va amaliy bilimlardan ta'lim jarayonida unumli foydalanish malakasini rivojlantirishiga bog'liqdir. Shunday ekan, ta'lim jarayonida yangi pedagogik atamalar va tushunchalar mohiyatini o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanishning uslubiy hamda amaliy asoslarini tadqiq etish masalasi tadqiqotning dolzarligini belgilaydi.

O'zbekiston ta'limida pedagogik atamalar mazmunini modernizatsiyalash va unifikatsiyalashning parametrlari R.X.Djurayev, M.S.Divanova, M.E.Inoyatova, M.Isakov, R.G.Safarova, O'.Q.Tolipov, X.O.To'raqulovlar, pedagogik atamalarning shakli va ma'nosini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash bo'yicha Q.Axmedov, A.Zunnunov, Sh.Musayev, N.A.Muslimov, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, M.H.Usmonboyeva, X.Qodirova, M.Xayrullayevlar [3], pedagogik atamalarning oliy ta'limda qo'llanilishi va aniq definitsiyalarga oid masalalarni L.V.Peregudov, M.X.Saidov, 3.T.Tohirovlar singari olimlarning tadqiqotlarida maxsus o'rganilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga, kasbiy terminlarni tarjima qilishda o'ziga xos xususiyatlariga yetarli e'tibor qaratilmaganligini ta'kidlash mumkin.



Nofilologik yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetentligini pedagogik atamalar asosida rivojlantirish jarayoni pedagogik atamalarga oid bilim va malakalarni egallashni nazarda tutadi. Mazkur jarayon boʻlajak oʻqituvchining amaliy faoliyati, maqsadlarini belgilab olish imkonini beradi. Bugungi kunda pedagogik atamalarning aksariyati xorijiy mamlakatlardan kiritib kelishi sivilizatsiya, yaʼni inson tafakkuri va uning faoliyat mahsuli sifatida tushnilmoqda. Shu bois, ijtimoiy hayotni belgilovchi, tartibga soluvchi meʼyorlar, insonlarning innovatsiyalashgan, yaʼni oʻzgachalikka boʻlgan iliq munosabati ijtimoiy jamiyatning barcha sohalariga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Ushbu holat zamonaviy, innovatsiyalashib borayotgan pedagogikaning taʼlim paradigmasini tubdan isloh qilish, turli millatlar muloqotini amaliy zaruriyatlarga yoʻnaltirish va pedagogik konsepsiyalarni uning atamalar bilan rivojlantirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik atamashunoslikning amaliy-nazariy masalalarini yanada chuqurroq oʻrganish, atamalarning yaratilishi va izohlanishi, amaliyotda isteʼmol sifatida qoʻllanilishini tartibga solish masalalari pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va amaliy muammosiga aylandi. Shu bois oʻzbek tilining turli atamashunoslik tizimlarini tadqiq yetish va ularni atamashunoslikning turli xil masalalariga doir atroflicha izlanishlar olib borish dolzarb masalalaridan sanalib qoldi. Oʻzbek tili Davlat tili maqomiga erishgan bugungi davrda oliy taʼlim muassasalarida pedagogik atamalarni takomillashtirish, ulardan toʻgʻri foydalanish masalalari yuzasidan yangidan-yangi vazifalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik atamalarning taʼlimda qoʻllanilishi bilan bogʻliq muammolar yuzasidan Rosemari Glaʼser, atamalarning qoʻllanilishi juda tabiiy hodisa boʻlib, atamalarni muvofiqashtirishning yoʻqligi yangi atamalar yaratilishiga imkon beradi, degan fikrni taʼkidlab oʻtadi. Basse E. Antianing tadqiqotlarida, talabalar oʻzlariga qisman notanish boʻlgan atamalar va tushunchalarni engishga harakat qilganda paydo boʻladigan yangi atamalarning turlarini yoritadi. Atamalar boʻyicha muammolarni ulardan foydalanishdagi noaniqlik belgilari sifatida koʻrish mumkin [5], degan qaydlarni uchratish mumkin. Oivin Andersen esa, boshlangʻich nuqta sifatida atamalarni ilmiy-amaliy muammolar nuqtai nazardan oʻrganish uchun taʼlim sifatini oshirish va uni takomillashtirish jarayonida qoʻllash mumkin, masalan, talabalarga ilmiy va kasbiy jihatdan bilimlarni rivojlantirishda qoʻllaniladigan atamalarni batafsil izohlab oʻtish, uning mazmuni va mohiyatini tavsiflab borish zarurligi haqida taʼkidlagan [4]. Maykl Hallidayning taʼbiricha muloqot davomida qoʻllaniladigan atamalar

bir qator funksiyalarni bajaradi. Xususan, tizimli nazariya va izchil nazariya funksiyasi asosida atamalar nutqimizni rivojlantiradi.

Pedagogik sohasiga doir atamalardan foydalanishning o'zi ijtimoiy jarayon bo'lib, ular matn, og'zaki yoki yozma tarzda ifodalanadi. Atamalar qo'llanilishi davomida ijtimoiy funksiyani bajaradi yoki ijtimoiy komponent sanaladi. Atamalardan boshqalar bilan o'zaro munosabatimiz ifodalash davomida va hatto yolg'iz o'zimiz uchun gapirganda yoki yozganda foydalanamiz. Atamalar orqali voqelikni tasvirlash, shaxsiyatimizni tanitish, boshqalar bilan muloqot qilishning asosiy vositasi sifatida va ular orqali yangi so'z ma'nolarini yaratish bilan birga o'zga millatlar madaniyatini ham o'rganishga xizmat qiladi. Atamalar matnni tashkil etuvchi so'zlar, so'z birikmalari, makol va matal, aforizmlar va shu kabilar asosida muloqotimizda paydo bo'ladi. Shy bois, odatda atamalarning kelib chiqishida tarjima usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilk bor tarjima, ya'ni transformatsiya usullari Vine va Darbelnelarning tadqiqotlarida metodologik makcadga asosan tacniflab o'tilgan. Xususan, talabalar kasbiy kompetensiyani egallashiga yordam berish uchun mo'ljallangan nazariya va amaliyot o'rtasidagi dialektikaga alohida ahamiyat berilgan. P.Nyumark tarjima transformatsiyalarni tranferensiya, natyralizatsiya, madaniy-tacviriy ekvivalent, komponentli tahlil, cinonimli, to'liq tarjima, o'zgarishlar yoki tranpozitsiyalar, modulyatsiya, tarjimaning racmiy yclybi, o'rin to'ldiruvchi, perifriza, birlashma va eslatmalarni tasniflagan.

Atamalar transformatsiya usullaridan foydalanish salmog'i asliyat va tillarining bir-biriga qardosh yoki qardosh emasligi bilan bog'liq, ular transformatsiya munosabati bilan muloqot muomalasiga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlar orqali tanlanadi. Atamalarni qo'llash jarayonida eng ko'p qo'llanadigan transformatsiyalar: so'z tartibining o'zgarishi, so'z qo'shish, so'zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari kabilar hisoblanadi. Transformatsiyalar sonining kam bo'lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar mikdorining ko'pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi. Atamalarni transformatsiya qilishda uning kaysi sohaga tegishli ekanligiga qarab turli xil transformatsiya usullarini qo'llanishi mumkin. Ular qo'llanilganda asliyat bilan transformatsiyaning leksik va sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Pedagogik atamalarni izohlashda asliyatdan transformatsiyaga o'tkazish va talqin qilish jarayonida ko'plab usullar mavjud bo'lib, bu usullar matndagi atamalar transformatsiyasini talabalar uchun moslashtirishga yordam beradi. Mavjud usullardan ba'zilari



tez-tez, ba'zilar esa kamroq qo'llaniladi. Ta'kidlash joizki, barcha usullar atamalarni transformatsiya qilish uchun juda muxim sanaladi.

Kasbiy atamalar, ma'lum bir kasb-hunarga oid tushunchalar sanalib, kasbga doir atamalardan iborat bo'ladi. Masalan o'qituvchi kasbga oid atamalarga: reyting, baho, yillik o'quv reja, sinf jurnali, pedagoglar kengashi va shu kabilardir. Qayd etish joizki, atamalarni tartibga keltirish, ularni tadqiq etish har bir tilda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga keltirish muammolari bilan shug'ullanuvchi soha atamashunoslik deb nomlanadi. Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasiga oid muayyan bir tushunchalarni aniq ifodalash maqsadida ma'nosi maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalari atama deyiladi. Mamlakatimizda atamalarni tartibga keltirishga qaratilgan ishlar mustaqilligimizning ilk yillaridayoq amalga oshirilgan. Xususan: a) rus tili va Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'rniga arab-fors tilidagi atamalarni qo'llash: aeroport o'rniga tayyoragoh; samolyot o'rniga tayyora; institut o'rniga oliygox, rayon o'rniga noxiya, radio o'rniga ovoznigor, telefon o'rniga durovoz kabilar; b) rus tili va Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalar o'rniga o'zbek tilining ichki imkoniyatlariga asoslanib, o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo'lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o'zbek tili fonetik konuniyatiga moslashtirib qo'llash. Masalan, aksiya-hissa, aksioner-hissador, kanselyariya-devonxona, pechat-muhr, gimn-madhiya, tamojnya-bojxona kabilar.

Ta'limda o'quv fanlar yuzasidan qo'llanadigan ba'zi terminlarni ifodalashda turli xil yondoshuvlar uchrab turadi. Xuddi shu holatni oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud o'quv fan dasturlari, darsliklar, ilmiy-uslubiy o'quv qo'llanmalarda ham uchratish mumkin. Xususan, pedagogika fanini o'qitish jarayonida atama va terminlarning turlicha ifodalanishi, undagi nomutanosibliklar bundan mustasno emas.

Nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda talaba shaxsini shakllantirish uchun ta'limning umumiy yaxlit jarayonini ifodalash masadida pedagogik atamalardan foydalanish taklifi muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'n yillar davomida o'quv adabiyotlarda pedagogik atamalar keng miqyosda qo'llanilmoqda. Jumladan:

- pedagogik atamalardan alohida foydalanish nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning etimologiyasiga to'liq mos keladi.
- pedagogik atamalar nofilologik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bevosita predmeti bo'lishi, faoliyati,

ko‘p o‘lchovli, bir vaqtning o‘zida yaxlit, bilim va ko‘nikmalar tizimini amalga oshiradigan jarayonlarni ifodalaydigan vosita vazifasini bajaradi.

- noan’anaviy ta’limni amalga oshirishda nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni uchun pedagogik atamalar qo‘llaniladi.

Xulosa, nofilologik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishida pedagogika faniga oid atama va tushunchalar tizimini takomillashtirish, ta’lim sohasida sinovdan o‘tgazishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni muntazam amalga oshirish zarur. Pedagogika ta’limi sohasiga oid atama va tushunchalarning barcha yo‘nalishlari uchun yagona standart shakllarini ishlab chikish va amaliyotga joriy etish orqali pedagogik atamalar bilan bog‘liq nomutanosiblikning bartaraf etilishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogika fani orqali egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalari sifatini oshirishga samarali ta’sir kiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-5847-son Farmoni.
2. Angela Duckworth. Grit: Why passion and resilience are the secrets to success. Ebury Digital; 1st edition. 4 May 2016. – 437 p.
3. Ahmedov K.S. Kimyo atamalarining ruscha o‘zbekcha qisqacha lug‘ati. Monografiya. – T., Fan, 1993, – 41 b.
4. Andersen, Ø. (2002). Terminology and pragmatics. In: M. Koskela, C. Laurén, M. Nordman & N. Pilke (Eds). Porta Scientiae I. Lingua specialis. Vaasa: Proceedings of the University of Vaasa. – P. 136-147.
5. Bassey E. Antia. (2007). Indeterminacy in Terminology and LSP: Studies in honour of Heribert Picht. John Benjamins. Collection Terminology and Lexicography Research and Practice. Volume 8. - 236 p.